

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ACHILOVA NURXON NORMUXAMMEDOVNA

**IPAK YO'LI ASPEKTI: O'ZBEK ADABIYOTIDA
AJDARHO OBRAZI TALQINLARI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Achilova Nurxon Normuxammedovna

Ipak yo'li aspekti: o'zbek adabiyotida ajdarho obrazi talqinlari..... 3

Ачилова Нурхон Нормухаммедовна

Интерпретация образа дракона в узбекской литературе в аспекте
Шелкового пути..... 21

Achilova Nurkhon Normukhammedovna

Interpretation of the Dragon image in the aspect of the Silk Road in Uzbek
literature..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ACHILOVA NURXON NORMUXAMMEDOVNA

**IPAK YO'LI ASPEKTI: O'ZBEK ADABIYOTIDA
AJDARHO OBRAZI TALQINLARI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2065 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musurmanov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umrzoq Abdurazzoqovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rajabov Dilshod Zaripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks:(8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Boshbino, 105-xona).


Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (117-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104,Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92;faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" noyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "15" noyabr dagi 14 raqamli reestr bayonnomasi).




Sh.A.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor


D.B.Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent


N.M.Muxitdinova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida muayyan dominantlik xususiyatlariga ega bo'lgan mifologik tushuncha, obraz yoki sujetga murojaat qilish va u orqali milliy adabiyot ildizlarini aniqlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Badiiy so'zning tasavvurlar olamida rivojlanishi va bu jarayonning ma'lum xalqlar adabiyotida sayyor obrazlar ko'rinishida tarmoqlanishi, milliy adabiyot sujetlarining evolyutsiyasini kuzatish, aniqlash, yakuniy xulosalar chiqarish imkonini yaratmoqda. Jahon adabiyotida badiiy timsollardan biri ajdarho obrazining genezisi, badiiy asarlardagi evolyutsiyasi, motiv darajasiga ko'tarilishi, Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida muhim o'rin tutganligi, folklor namunalariidagi ajdarho konsepti jihatlarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida Buyuk ipak yo'lida joylashgan xalqlarning adabiyotlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Ulardagi mifologik tushunchalar, ajdarho turkumidagi keng tarqalgan mifologik obrazlar, turli xalqlar folklorida timsol nomining o'zgarishi, poetik mazmunda ijobiy yoki salbiy obraz sifatida gavdalanishi hamda ijodkor uslubida novatorlik kasb etishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bois ajdarho obrazining Xitoydan Yevropagacha bo'lgan hududda vujudga kelishi, sabablari, evolyutsiyasi, tarixiy va g'oyaviy ildizlari, ularning o'zbek adabiyotida, ayniqsa, folklorida tutgan o'rni, ajdarho obrazining metamorfozasi, janrlar tabiatidagi funksiyalarini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda Buyuk ipak yo'li hududlaridagi madaniy aloqalarga, badiiy ijodiga, xususan, folklor janrlariga, ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Buyuk ipak yo'li nafaqat hududlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki davlatlar va qit'alar o'rtasida axborot almashuvini ta'minlashga xizmat qilgan, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot uchun shart-sharoitlar yaratilgan".¹ Binobarin, xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish madaniy qadriyatning bir qismi bo'lgan milliy adabiyotlarning hududlardagi taraqqiyotiga va ularning munosabatiga ham bevosita aloqadordir. Buyuk ipak yo'li xalqlari adabiyoti va madaniyatidagi ahamiyati va asosan, uning o'zbek adabiyoti va mifologiyasida tutgan o'rnini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹Мирзиёев Ш.: Ипак йўли чорраҳасида жойлашган Ўзбекистонга барчанинг қизиқиши ортиб бормокда. [Elektron resurs]: URL <https://sputniknews-uz.com/20170515/Ipak-yo'li-chorrahasida-joylashgan-5405263.html> (murojaat vaqti: 18.11.2021).

to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ma'lum darajada ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ipak yo'li bo'ylab joylashgan xalqlar madaniyatlari va adabiyotlarida ajdarho obrazining paydo bo'lishi va migratsiyasiga turli dinlar, falsafiy qarashlar, totemistik tushunchalar o'z ta'sirini o'tkazgan. O'zbek folklorida aydahor, yozma adabiyotining dastlabki namunalarida yilon, Alisher Navoiy asarlarida² ajdaho shaklida keltirilgan ajdarho obraziga o'zbek adabiyotshunosligida u yoki bu tarzda munosabatlar bildirib o'tilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida va istiqlool davridan boshlab o'zbek adabiyotida, folklorida mifologik obrazlarning alohida tadqiqiga e'tibor berila boshlandi. Bu vaqtda M.Murodov va M.Shayxova o'zbek asotir va rivoyatlarini³, M.Jo'rayev va U.Sattorov xalq naqlari, afsona va rivoyatlarini to'plab, majmua qilib nashr etishdi⁴. M.Jo'rayev Buyuk ipak yo'li afsonalarida ajdarho obrazining o'ziga xos jihatlarini o'rgandi⁵. S.Jumayeva esa o'z kuzatishlarida hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik va spetsifik asoslarini aniqlashga harakat qildi⁶. K.Imomov jodugar obrazining talqinlarini o'rgandi⁷. J.Eshonqulov dev obrazining badiiy talqinlarini ilmiy tadqiqot darajasida o'rganib chiqdi va nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi⁸. O.Qayumov pari obrazining kelib chiqishi va badiiyatini ochib beruvchi nomzodlik dissertatsiyasini maydonga keltirdi⁹, D.Fayziyeva o'zbek folklorida ilon-ajdar¹⁰ obrazining epik talqiniga oid

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 7-jild: Xamsa: Hayrat ul-abror. –T.: Fan, 1991.– 422 b.; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 8-jild: Xamsa: Farhod va Shirin. –T.: Fan, 1991.– 595 b.; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 9-jild: Xamsa: Layli va Majnun. –T.: Fan, 1992.– 377 b.; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 10-jild: Xamsa: Sab'ai sayyor. –T.: Fan, 1992.– 491 b.; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 11-jild: Xamsa: Saddi Iskandariy. –T.: Fan, 1993.– 727 b.; va boshq.

³ Асотирилар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: М.Муродов, М.Шайхова. –Тошкент: Ёш гвардия, 1990. –128 б.

⁴ Боболардан қолган нақллар: афсона, ривоят, ирим-сирим ва халқ тақвими (тўплаб нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: М.Жўраев, У.Сатторов). – Тошкент: Фан, 1998. –Б.2.

⁵ Ipak yo'li afsonalari. Tuzuvchi: M.Jo'rayev–T.:Fan,1993. –128 b.

⁶ Жумаева С.Ч. Хайвонлар ҳақидаги эртақларнинг генетик асослари ва спецификаси: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. . – Тошкент, 1996. –42 б.

⁷ Имомов К. Ялмоғиз – жодугар образи талқинига доир / Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. –Тошкент: Фан,1979.– Б.77-88.

⁸ Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. . –Тошкент, 1996.–44 б.

⁹ Қайумов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. –Тошкент, 1999.–52 б.

izlanishlar olib bordi¹¹, D.O'rayeva va G.Nazarovalar o'zbek va ingliz adabiyotlaridagi mifologik obrazlar sirasida ajdarho obrazini qiyosiy tadqiq qilishdi¹². A.Abdurahmonov o'zbek adabiyotining qadimgi davrini bir qancha asarlarida bosqichli tarzda o'rganib, ajdarho obrazining genezisi va evolyutsiyaga oid muhim kuzatishlarni amalga oshirdi¹³.

Biroq Buyuk ipak yo'lida joylashgan xalqlarning madaniy-adabiy aloqalari zaminida yuzaga kelgan ajdarho obrazining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, talqinlari, o'ziga xos va farqli jihatlari hanuz yaxlit tadqiqot ob'yekti sifatida monografik rejada o'rganilmagan. Shu bois ajdarho obrazining mifologik obrazlar tizimida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalalari" mavzusidagi ilmiy ishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Buyuk ipak yo'li xalqlari madaniyatidagi ajdarho timsolining o'zbek folklori va yozma adabiyotdagi vazifasini aniqlash, uni Xitoy va Yevropa xalqlari eposlarida keladigan obraz bilan qiyoslash hamda uyg'un, umumiy va farqli jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buyuk ipak yo'li magistralida joylashgan xalqlar madaniyati va adabiyotlarida dominant epik sujetlardagi ajdarho bilan bog'liq talqinlarning maydonga kelish tizimi va rivojlanish hodisasini aniqlash;

long, drakon va ajdarho mifologik obrazlarining yaralish joyi, migratsion yo'nalishi, mifologik xususiyatlari va mahalliy hududiy ta'sirlar zaminida o'zgarishlarga yuz tutishlarini asoslash;

ajdarho obrazi xitoy, turkiy yoki Yevropa xalqlari adabiyotidan boshqa xalqlar madaniyatiga ko'chishi, mental o'zgarishlardan so'ng takomillashgan holda ortiga qaytishi jarayonini tadqiq qilish, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda, o'zbek adabiyotidagi ajdarho, yuho, sazag'an obrazlarining o'ziga xos xususiyatlarini dalillash;

Xitoy longi haqidagi qadimgi manbalar, Yevropa xalqlarining buyuk eposi

¹⁰ Ajdar tojik tilida echkiemar ma'nosini ham anglatadi: Аждар 1) Драко – судралувчи мавжудотлар гуруҳи. Унинг 14 тури бор ва Малайзия ялангликлари ва Жанубий Осиёда (Ҳиндистон) кўпроқ учрайди (оригинал матн: Аждар 1) Драсо – як гурӯҳи чонварони хазанда. Аждар 14 намуд дошта, бештар дар галачазираи Малай ва Осиёи Ҷанубӣ (Ҳиндустон) дучор меоянд). Энциклопедияи Миллии Тоҷик, Ҷилди 1. А-АСОС – Душанбе: Сарредаксияи илмӣи Энциклопедияи Миллии Тоҷик, 2012. – С. 203.

¹¹ Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадияти): Филол. фанлари номзоди...дисс. автореф.– Т., 2004.–22 б.

¹² O'rayeva D., Nazarova G. "Comparative analysis of mythological names and mythologisms in the english and uzbek literature, Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 9. DOI: 10.36078/987654475. – P.17.

¹³ Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism. [Elektron resurs]: URL <http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html> (Murojaat sanasi: 8.02.2019); Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. –378 b.; Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. –T.: 2004. – 420 b.; Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимий қатламлари. Бешинчи қисм. [Elektron resurs]: URL <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid-abdurahmonov-beshinchi-qism.html> (Murojaat sanasi: 9. 02. 2019).

“Beovulf”, shuningdek, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari va “Xazoyin ul-maoniy” devonlaridagi ajdarho obrazlarini qiyosiy va statistik nuqtayi nazardan ochib berish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida Buyuk ipak yo‘lidagi madaniy-falsafiy qarashlarga oid manbalar, o‘zbek, xitoy, Yevropa xalqlari folklori, mifologiyasi va adabiyoti, “Alpomish” dostoni, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning dostonlari, devonlari va tarixiy asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Buyuk ipak yo‘li xalqlari madaniyatida maydonga kelgan ajdarho obrazining o‘zbek adabiyotidagi in‘ikosi, o‘ziga xosligi va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy, madaniy-tarixiy, tavsiflash, tizimli yondashuv, matnning adabiy tahlili va qiyosiy-tipologik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qadimgi o‘zbek folklorida ajdarho timsoli asosan yaxshilik, kuch-qudrat ramzi bo‘lib kelganligi, yunon mifologiyasi, islom dini va fors madaniyati ta’sirida obraz modernizatsiyaga uchraganligi hamda salbiy ma’no kasb eta boshlaganligi asoslangan;

ajdarho so‘zining etimologiyasi qadimgi dariy tiliga taalluqliligi, “Long” so‘zining etimologiyasi turkiycha “ilon” so‘ziga fonetik va leksik jihatdan yaqinligi ochib berilgan;

o‘zbek adabiyotida ilon va ajdarho obrazlari kelib chiqish tarixi bir-biriga bog‘liqligi, ko‘p hollarda ikki obraz negizida bir xil tushuncha yotganligi va ularning ilohiylashtirilgan idrokli mavjudot sifatida qaralganligi dalillangan;

ajdarho obrazining o‘zbek folklori, “Alpomish” dostonidagi talqinlari bilan Buyuk ipak yo‘li boshida turgan Xitoy mifologiyasi longlari va Ipak yo‘lini nihoyalagan Yevropa xalqlarining qadimgi va nodir adabiy yodgorligi “Beovulf” eposidagi drakonlari qiyoslanib, ajdarho obrazlarining vaqt, matn, individuallik nuqtai nazardan sayyor evolyusion jarayonlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotning tahliliy materiali hamda chiqarilgan ilmiy xulosalar kelgusida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun yordamchi manba bo‘lib xizmat qilishi, undan Buyuk ipak yo‘li xalqlari, shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixi, folklori va mifologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yaratish uchun foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

Buyuk ipak yo‘li atrofida joylashgan xalqlar doimiy ravishda bir-birlari bilan o‘zaro konstruktiv tarzda aloqada bo‘lib kelinganligi ajdarho obrazining xalqaro migratsiyasi va evolyutsiyasi misolida asoslangan;

Tadqiqot qadimgi Xitoy, Turon, Yaqin Sharq va Yevropa xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy sohalaridagi bog‘liqlik va uzviylikka oydinlik kiritadi, madaniy migratsiyaning yo‘nalishlarini aniqlangan;

adabiyot sohasida ma’lum bir mifologik timsolni, jumladan, ajdarho obrazining turli qo‘shni xalqlardagi variantlarini qiyosiy o‘rganish insoniyat tarixi va badiiy so‘z evolyutsiyasiga oid muhim xulosalarga kelish imkonini berishi dalillangan;

Ipak yo‘li aspektida ajdarho obrazining o‘zbek folklori va adabiyotidagi talqinlari masalasini alohida o‘rganish bu obrazga oid bir yoqlama qarashlarga barham berishi, uning ma‘lum bir falsafiy-g‘oyaviy ta‘sir natijasidagi deformatsiyalarga uchrashi jarayoni ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash bo‘yicha amalga oshirilayotgan bir qator mintaqaviy hamda xalqaro loyihalarga, adabiyotshunoslikning so‘nggi ilmiy yutuqlari va ishonchli manbalarga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning qiyosiy, tavsiflash, tizimli yondashuv kabi tahlil usullari orqali chiqarilganligi, olingan natijalarning jahon adabiyotshunosligi va folklorshunosligining eng so‘nggi ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mumtoz adabiyot, folklor va mifologiyaning janr imkoniyatlari, mifologik obrazlar, xususan, ajdarho obrazining evolyutsiyasi va poetik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha muhim manba ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi xulosalardan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, “O‘zbek mifologiyasi” kabi mutaxassislik va tanlov fanlarini o‘qitishda, oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratish, ularni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buyuk ipak yo‘li aspektida o‘zbek adabiyotida ajdarho obrazi talqinlari bilan bog‘liq izlanish olib borish asosida:

ajdarho obrazining o‘zbek folklori, “Alpomish” dostonidagi talqinlari bilan Buyuk ipak yo‘li boshida turgan Xitoy mifologiyasi longlari va Ipak yo‘lini nihoyalagan Yevropa xalqlarining qadimgi va nodir adabiy yodgorligi “Beovulf” eposidagi drakonlari qiyoslanib, ajdarho obrazlarining vaqt, matn, individuallik nuqtai nazardan sayyor evolyusion jarayonlari talqinlariga oid chiqarilgan ilmiy xulosalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2024-yil 2-fevraldagi 132/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada xalq og‘zaki ijodida ajdarho obrazining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, folklori ijodida tutgan o‘rni, ijobiy va salbiy obraz sifatida gavdalanishi kabi jihatlari asoslanishiga erishilgan;

ajdarho so‘zining etimologiyasi qadimgi dariy tiliga taalluqli bo‘lganligi, “long” (Xitoy ajdarhosi) so‘zining etimologiyasi turkiycha “ilon” so‘ziga fonetik va leksikologik jihatdan juda yaqinligi, ajdarho haqidagi dastlabki yozma ma‘lumotlar Qadimgi Misr bitiklari va shumer-bobil xalqlari dostonlarida keltirilganligi va bir xalqda ijobiy talqin qilingan boshqa bir xalq mifologiyasida salbiy talqin etilgan ajdarho obrazi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar va materiallar Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 – Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-apreldagi 04/1-902-son ma‘lumotnomasi). Natijada qadimgi dunyo sahnida “Buyuk ipak yo‘li” tushunchasi insoniyat tarixidagi eng yorqin fenomenlardan biriga aylanishi, Buyuk

ipak yo'lida joylashgan xalqlar adabiyoti va mifologiyasidagi sehrli-fantastik timsollar madaniy-ma'rifiy g'oyalar migratsiyalari sababli o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib borgan va dominant mifologik obrazlarga aylana borganligi haqidagi ma'lumotlarning kengayishiga erishilgan;

qadimgi o'zbek folklorida ajdarho timsoli asosan yaxshilik, kuch-qudrat ramzi bo'lib kelganligi, yunon mifologiyasi, islom dini va fors madaniyati ta'sirida obraz modernizatsiyaga uchraganligi va salbiy ma'no kasb eta boshlaganligi haqida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat hududiy bo'linmasi qoshidagi "Sadoqat" ijodiy to'garagi yosh ijodkorlariga ma'ruzalar qilingan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 15-maydagi 57-son ma'lumotnomasi). Natijada ijodiy to'garak mashg'ulotlarining ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va yangi manbalar bilan boyitilgan;

o'zbek adabiyotida ilon va ajdarho obrazlari kelib chiqish tarixi bir-biriga bog'liqligi, ko'p hollarda ikki obraz negizida bir xil tushuncha yotganligi va ularning ilohiylashtirilgan idrokli mavjudot sifatida qaralganligi haqida erishilgan natijalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil yanvar oyi davomida efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" va "Uchqun" teleko'rsatuv ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-apreldagi 01-07/81-son ma'lumotnomasi). Natijada Sharqiy Osiyo (xitoy, koreys, yapon) xalqlari tomonidan ulug'langan ajdarholarga, slavyan, Yevropa va fors xalqlari tomonidan salbiy obraz sifatida qaralganligi, ajdarho obrazi turkiy xalqlar mifologiyasida ikki xil o'rin egallaganligi, u ba'zi ertak va miflarda salbiy qahramon sifatida namoyon bo'lsa, ba'zi folklor na'munalarida qahramonga yordam beruvchi ijobiy kuch sifatida ko'ringanligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda va xalqaro saytlarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy maqola nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shulardan, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi lotin yozuvida 156 sahifadan (ilova bilan 176 sahifa) iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“Ajdarho obrazining takomilida Buyuk ipak yo‘lidagi tarixiy jarayonlar o‘rni”** deb nomlangan birinchi bobida Buyuk ipak yo‘lining ajdarho obrazi genezisi va evolutsiyasidagi o‘rnini belgilashga e’tibor qaratilgan. Bobning dastlabki bo‘limi **“Buyuk ipak yo‘li – eng yorqin madaniy aloqalar fenomeni sifatida”** deb nomlangan bo‘lib, unda Ipak yo‘lining yaratilishi, harakati, vujudga kelgan dastlabki badiiy aloqalar migratsiyasi va bunga sabab bo‘lgan tarixiy shaxs va omillar haqida so‘z boradi.

Qadimgi dunyo sahnida “Buyuk ipak yo‘li” tushunchasi insoniyat tarixidagi eng yorqin fenomenlardan biriga aylandi. Bu ulkan magistralda joylashgan xalqlar adabiyoti va mifologiyasidagi sehrli-fantastik timsollar madaniy-ma’rifiy g‘oyalar migratsiyalari sababli dominant mifologik obrazlarga aylana borgan, buning yorqin misoli - ajdarho obrazi.

Buyuk ipak yo‘li sababli qadimgi Xitoyda ot kulti muqaddaslashgan. Farg‘onadan Xitoyga kirib borgan ot obrazi ajdarho obrazi bilan uyg‘unlashgan va ularni bir-birlariga o‘xshatishga harakatlar boshlangan. Xitoy tilidagi longma (long 龍 "ajdar" va ma 馬 "ot") ximera-maxluqni anglatgan.

Xan sulolasi davri (mil.ol. 206– mil. 220 y.y.) allomasi Van Fu shunday ma’lumot bergan edi: "Odamlar ajdarho ko‘rinishining boshini otniki va dumini ilonniki qilib tasvirlashgan"¹⁴. Xitoy ajdarho-oti haqida “Ijing” asariga yozilgan sharhda xabar keltiriladi¹⁵. “Samarqandning oltin shaftolilari” asarini yozgan Edvard Shafer xitoy mifologiyasidagi ot-ajdarho obraziga to‘xtalib, shunday deydi: “Asotirda keltirilishicha, ot ajdarhoning qarindoshi bo‘lib, suvning sirli kuchlari bilan bog‘liq. Darhaqiqat, nisbatan qadimgi rivoyatga asoslansak, Hindistondan muqaddas kitoblarni keltirgan aslzoda Syuangszang tulpori kabi ajoyib otlar ajdarholarning avatarlari bo‘lgan, qadimgi davrlarda esa xitoyliklar yirik otlarni shunchaki “ajdarholar” deb atashgan”¹⁶.

Qadimgi turkiy xalqlar orasida ot totemi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Dostonlarda G‘irot, Boychibor, “Manas”da Oqula, “Maaday Qora” dostonida Karish Quloq kabi ot obrazlariga katta e’tibor qaratilishi qadimgi totemistik qarashlar natijasidir. Agar “Alpomish” dostonidagi alp va nazarkarda ot Boychiborga ahamiyat bersak, uning ayrim harakatlarida ajdarhoning belgilari va vajohatini ko‘rish mumkin.

O‘zbeklar orasida suvda yashaydigan g‘aroyib ot haqidagi tushunchalar qadimgi davrlardan mavjud bo‘lgan. Jumladan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Go‘ro‘g‘lining jangovar oti G‘irotning ajdodi suv tulpori sifatida keltiriladi¹⁷. Bu ot suv ayg‘iri bo‘lib, uning suvda yashashi, qanotli va qudratli bo‘lishi ajdarho bilan qarindosh ekanligidandir.

¹⁴Visser V., Willern M. Dragon in China and Japan. Introduction. Loren Koulman. Amsterdam – New York City: 1913. 2008. J. Müller – Cosimo Classics (reprint). pp. 70/ ISBN 9781605204093. [Электронный ресурс]: https://en.wikipedia.org/wiki/Longma#cite_note-1 (Время обращения: 22.12.21.).

¹⁵O‘sha manba.

¹⁶Schafer, Edward H. The Golden Peaches of Samarkand, a Study of T'ang Exotics. p. 59. (Original text: Indeed, all wonderful horses, such as the steed of the pious Hsüan-tsang which, in later legend, carried the sacred scriptures from India, were avatars of dragons, and in antiquity the tallest horse owned by the Chinese were called simply "dragons").

¹⁷Булбул тароналари. Беш томлик. – Тошкент: Фан, 1973. Тўртинчи том. – Б. 547.

Mifologik gibril hayvonlar yoki ximeralar, shu jumladan, ajdaho-otlarning turli ko'rinishlari Buyuk ipak yo'li xalqlari madaniyatlarida bor bo'lgan. Yunon mifologiyasida gippokampus ("dengiz yirtqich hayvon-oti") degan ximera hayvon bor bo'lgan¹⁸. Bobil mifologiyasida "ajdarho-ot" ma'buda Tiamatning unvonidir¹⁹.

Bobning ikkinchi bo'limi **“Ajdarho obrazi Buyuk ipak yo'li miflari va g'oyalari talqinida”** deb nomlanadi. E'tiborimizni tortgan jihat shundaki, qaysi din haqida, uning o'ziga xos xususiyati va mifologik personajlari haqida gapirmaylik, ularning deyarli barchasida ajdarho va unga o'xshash qudratli raqib obrazi uchraydi.

O'zbek mifologiyasida ajdarhoga o'xshash ulkan ilon - yuho obrazi mavjud. U go'zal qizga aylanib, dastlab uchragan erkakka erga tekkan va asta-sekin uning qonini so'rib olgan, oqibatda kuch-quvvatdan qolgan er vafot etgan. Yarim tunda **yuho** chanqog'ini qondirish uchun ulkan ilon ko'rinishida suv havzasiga sudralib borib, chanqog'ini qondirgan, shu sababli uni fosh etish uchun unga tuzli yemaklar yedirishgan. Yuhoning kindigi va qo'ltiq botmasining bo'lmasligi uning o'ziga xos belgilari sanalgan. Yuhoni faqat olovda yoqib o'ldirish, kulidan esa ayrim kasalliklarni tuzatishda foydalanish mumkin, deb tushunilgan.

Yunon mifologiyasida **Meduza Gorgona** degan yarim ilon ayol obrazi mavjud bo'lib, u nazari bilan erkaklarni toshga aylantirgan. Nasroniylikda ajdarho obrazi alohida o'rin egallaydi. U ayrim holatlarda maxluq sifatida tushunilsa, boshqa holatda ilonsifat iblis **Leviafan** deb talqin qilingan. Qadimiy Ahdda va G'arbiy semit – ugarit mifologiyasida ham yetti boshli qudratli Leviafan yoki Latanu haqidagi mif mavjud.

Alisher Navoiy o'zining “Hayrat ul-abror” asarida Leviafan haqidagi tasvirni islom dini tushunchalari nuqtayi nazaridan yanada rivojlantiradi. Imon sharhiga bag'ishlangan avvalgi maqolatda jahannam ustidan o'tadigan Pulsirotni ko'prigi, qiyomatda undan yurib o'tadigan ayrim odamlarga qiyin, ayrimlariga oson bo'lishi mumkinligi, ko'pri ostida esa jahannam mavjud bo'lib, u yetti boshli dahshatli ajdarhoga o'xshashligi bayon qilingan:

Do'zax o'ti dudig'a yo'q intiho,
Xalq halokig'a bo'lur **ajdaho**.
Yeti boshi gunbadi davvordek,
Yeti og'iz har birisi g'ordek²⁰.

Ibroniylar dinlari hisoblangan yahudiylar, nasroniylar va islom dinlarida ilon aslan salbiy obrazda namoyon bo'lgan, biroq gohida uning ijobiy xislatlari ham keltirilgan. Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishi haqidagi rivoyatda ilon fitna va yovuzlik ramzini ifoda etuvchi obrazda ko'rinadi.

Islom ta'limotida Odam Ato va Momo Havoni gunoh qilishga undagan va jannatdan quvilishiga sababchi bo'lgan ilon iblisning bir ko'rinishi hisoblangan. Bu haqda Qur'onning “A'rof” surasida²¹ ma'lumot keltirilgan. Shu tariqa “A'rof”

¹⁸Michael C. "Chinese Dragon Names (PDF). Linguistics of the Tibeto-Burman Area. 13 (2): 87–189. - P. 154.ISBN 9781312265288.

¹⁹Gerald M. Ancient Egypt, the Light of the World. Unwin. – P. 274.ISBN 9781312265288.

²⁰ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.– B. 112.

²¹A'rof-7 sura. [Elektron resurs]: <https://www.musulmonlar.com> (Murojaat sanasi: 29.05.2023)

surasida ilon Allohga qarshi ochiqchasiga isyon qiluvchi obraz sifatida talqin qilingan. Shunday bo'lsa-da, ilon islomda har doim ham yomonlik ramzi sifatida namoyon bo'lavermagan.

Qur'ondagi „Shuaro“ surasidagi ilon obrazi bir qancha ramziy va majoziy ma'nolarga ega. U bir vaqtning o'zida yovuzlik va sehr (yolg'on), ilohiy donolik va bilim, shu bilan birga, Muso, fir'avn, Isroil xalqi va Misr xalqi hayotidagi yangi davr boshlanishining ramziy va majoziy ma'nolarini ifodalagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbek adabiyotida ajdarho va uning Ipak yo'li adabiyotidagi transmissiyasi”** deb nomlangan. Bobning birinchi bo'lim **“O'zbek folklorida va Buyuk ipak yo'li mifologiyasida ajdarho timsoli”** deb atalgan bo'lib, unda o'zbek ertaklari, dostonlarida mavjud bo'lgan ajdarho timsoli Ipak yo'li bo'ylab joylashgan xalqlar epik asarlaridagi ajdarho obrazi bilan qiyosiy o'rganiladi.

Dunyoning deyarli barcha xalqlari mifologiyasidagi kabi ajdarho (drakon) obrazi qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasida ham yetakchi o'rinlardan birini egallab kelgan. Qadimgi davrda turkiy xalqlar orasida ajdarho kuch va qudrat ramzi bo'lib hisoblanishi bilan bir qatorda u salbiy qahramon sifatida ham namoyon bo'lgan. Kichik va Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir xalqlari mifologiyasida keng tarqalgan ajdarho obrazi turkiy tillarda turlicha talaffuz etiladi (turklarda – **ejderxa**, o'zbeklarda – **ajdarho**, turkmanlarda – **ajdarxa**, qirg'izlarda – **aj[ɣ]daar**, Qozon tatarlari, boshqird va ozarbayjonlarda – **ajdaha**, qozoqlarda – **ajdaha** va **aydagar**, no'g'aylarda – **azdaga**). Bu barcha nomlanishlarning talaffuzi, ayrim fonetik xususiyatlar e'tiborga olinmasa, deyarli bir xil.

O'zbek adabiyotida ajdarho yoki ulkan ilon (yilon) obrazlari badiiy ijodning dastlabki namunalaridan boshlab uchraydi. Bunday asarlar sirasiga xalq og'zaki ijodi namunalari, Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari **“Devonu lug'otit-turk”** (**“Turkiy so'zlar devoni”** 1071-72 y.y.), Nosiruddin Burhonuddin o'g'li Rabg'uziyning **„Qissasi Rabg'uziy”** (1309-10) kabi asarlari mansubdir.

“Alpomish” dostonida ajdarho baxshi tilida **“aydahor”** shaklida 37 marta keltirilib, asosan, qudratni, ezgulikni aks ettiruvchi majoziy obrazni anglatadi. **“Alpomish”** dostoni tahlilidan anglashiladiki, qadimgi o'zbek eposida ajdarho tilga olinganda u ertaklardagi kabi salbiy talqin qilinmaydi. U ezgulik, kuch-qudrat timsoli sifatida keltiriladi. Ajdarho obrazi dostonida sof turkiy timsol, mifologik totem, qahramon, qahramonni qo'riqlovchi, asrovchi, dushmani yakson qiluvchi kuch, xoinlarni jazolovchi ulkan maxluq ko'rinishini olgan. Demak, badiiy asar qanchalik qadimgi bo'lsa, ajdarho obrazi shunchalik ijobiy timsol qiyofasida namoyon bo'lgan.

Ajdarho obrazi dunyoning deyarli barcha xalqlari mifologiyasida uchraydi. Ushbu afsonaviy va qudratli mavjudotlarning qachonlardir yer yuzida yashaganligi haqida bugungi kunga qadar aniq ma'lumotlar mavjud emas, biroq qadimda ular insoniyat tomonidan ma'budlar darajasigacha ko'tarilgani sir emas. Albatta, ajdarho faqatgina ma'lum bir xalqlar qudratining ramzi bo'lgan va o'sha xalq bilan urush holatidagi xalqlar uchun ajdarho salbiy obraz bo'lib qolgani ehtimoli yo'q

emas. Sharqiy Osiyo (xitoy, koreys, yapon) xalqlari tomonidan ulug‘langan ajdarholarga slavyan, Yevropa va fors xalqlari tomonidan salbiy obraz sifatida qaralgan. Ajdarho obrazi turkiy xalqlar mifologiyasida ikki xil o‘rin egallagan. U ba’zi ertak va miflarda salbiy qahramon sifatida namoyon bo‘lsa, ba’zi folklor namunalari qahramonga yordam beruvchi ijobiy kuch sifatida ko‘ringan.

Bobning ikkinchi bo‘lim **“Ajdarho, long, drakon obrazlarining genezisi va qiyosiy evolyutsiyasi”** deb atalgan. Shaklan bir nechta hayvon xususiyatlarini, shu jumladan, insonga xos aql-zakovatni o‘zida mujassam etgan ajdarho obrazining vujudga kelishiga ehtimol turkiy xalqlar uchun bir nechta yetakchi jonivorlarni jamlash va undan idrokli donishmand obrazini shakllantirish istagi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, qadimiy prototurkiy xalqlar mifologiyasida uchraydigan ajdarho obrazi dastlab ezgulik va yorug‘lik vakili, yaratuvchi sifatida ta’riflangan.

Ajdarhoning eng ko‘zga ko‘rinadigan ziddiyatli tomonlaridan biri shuki, u gohida vahshiy yirtqich qiyofasida namoyon bo‘lsa, gohida odamlarga ko‘makchi va oqko‘ngil mavjudot sifatida gavdalanadi.

1-jadval

Ajdarhoning turli xalqlar mifologiyalaridagi ko‘rinishlari:

№	Ajdarhoning turi va nomi	Qaysi xalq mifologiyasi vakili
1.	Long	Xitoy ajdarhosi
2.	Luu, Lus, Abarga Mogoy	Mo‘g‘ul mifologiyasi ajdarhosi
3.	Zmey Gorinich, Chudo-yudo	Qadimgi rus ajdarhosi
4.	Tannin, Tunannu	G‘arbiy semit xalqlari ajdarhosi
5.	Nidxegg, Fafnir, Yormungad, Midgardsorm	Skandinav xalqlari ajdarholari
6.	Tifon, Ladon, Lerney Gidrasi, Piton	Yunon mifologiyasi ajdarholari

Xitoy ajdarhosi odatda qanotli mavjudot shaklida tasvirlanib, samoga qanot qoqib, bulut, yomg‘ir kabi tabiat hodisalariga hukmronlik qilgan. Qadimgi Xitoyda olam yaratilishining besh o‘zagi haqidagi ta’limot paydo bo‘lgach, unga ko‘ra, besh rangli ajdarlar: sinlong - yashil, chilong - qizil, xuanlong - sariq, baylong - oq va syuanlong - qora ajdarlar haqidagi tushunchalar maydonga keldi.

Xitoy ajdarhosi longning genezisi va long so‘zining etimologiyasi haqida turli fikr va qarashlar mavjud. Bizningcha, barcha turkiy tillarda keng tarqalgan va deyarli bir xil talaffuz qilinadigan “ilon” (turkcha – yilan, qozoqcha – jilan, o‘zbekcha – ilon va h.) so‘zining xitoycha “long” so‘ziga ham fonologik, ham leksik jihatdan juda o‘xshashligini ko‘rish mumkin. Fikrimizcha, aynan o‘zbekcha **“ilon”** so‘zi xitoycha **“long”** (ajdarho) so‘ziga asos bo‘lgan.

Ajdarho obrazlari Osiyo, Yevropa, hind, turkiy xalqlar, semit, yapon, slavyan va skandinav xalqlari mifologiyalarida mavjud. Bo‘limda Yevropa xalqlari madaniy hayotida, san’atida juda muhim o‘rin tutib kelgan “Beovulf” dostoni tadqiqot doirasiga tortilgan.

“Beovulf” – bosh qahramon nomi bilan ataladigan anglosaks yodgorligi taxminan VIII asrda yozilgan. Ajdarho asarning asosiy mifologik obrazlaridan biri sanaladi. Asar ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, har ikkisi ham qahramonning ajdarho yoki ajdarhosifat antropomorf mavjudotlar (Grendel va uning onasi) bilan kurashi

haqida hikoya qiladi. Bo‘limda “Beovulf” dostonidagi ajdarho (drakon) obrazi orqali Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Xitoydan Markaziy Osiyo orqali yo‘l olgan ajdarho timsoli Yevropaga qanday o‘zgarishlar bilan yetib kelganligi tadqiq qilindi.

Markaziy Osiyo xalqlari dostonlariga xos bo‘lgan yana bir holat – bu bosh qahramonning va anti qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, kuch-qudratining tasvirlanishi hamdir. Odatda qahramonning kuchini tasvirlash uchun uning dushmanlari - qudratli dev, ajdarho va shu kabi obrazlarga nisbatan grotesk badiiy usuli qo‘llaniladi. Alpomish, Manas, Go‘ro‘g‘li, Gerakl, rus bahodirlari kabi qahramonlar singari Beovulf ham qudratli jangchi sifatida tasvirlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek adabiyotida ajdarho obrazi”** deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi bo‘lim **“Qissasi Rabg‘uziy” asarida ajdarho obrazi: milliy mentalitet va islom g‘oyalari uyg‘unlashuvi**” tadqiqiga bag‘ishlangan.

Nosiruddin Burhonuddin o‘g‘li Rabg‘uziyning (13-asr oxiri - 14-asr boshlari) 72 qissadan iborat bo‘lgan “Qissasi Rabg‘uziy” asari mavzu doirasiga ko‘ra rang-barangdir. Asarda ajdarho nazarda tutilgan yilon obrazi bir qancha joylarda mavjud. Masalan, “Sifati al-arazina”, ya’ni “Yerning sifati” bo‘limida yer ostidagi dahshatli ajdarholar shunday tasvirlanadi: To‘rtinchi qavat yerning oti Xarnadir. Uning ichida jahannam ilonlari bor. Har bir ilonning og‘zida mingta tishi bor. Har bir tishning kattaligi xurmo daraxtidek, har bir tishning ostida zahar bilan to‘la o‘n sakkiz olma bor²². Yuqorida keltirganimizdek, garchi Rabg‘uziy sudralib yuruvchi dahshatli maxluqni yilon (ilon) deb atasa-da, amalda ulkan va yovuz ajdarhoni nazarda tutayotganligi ayon bo‘ladi. Bunday holni Burhonuddin Rabg‘uziyning yurti bo‘lgan Xorazmning Rabot o‘g‘uz mavzeyida fors madaniyati va adabiyotining ta’siri kam bo‘lganligi, shu sababli ham asarda fors tilida ko‘p qo‘llanilgan ajdarho atamasi bu asarda ishlatilmagan degan mulohazaga keldik. Asar ko‘proq islom dini tushunchalari va Qur‘on oyatlari asosida yaratilgan.

Nosiruddin Rabg‘uziy asarida ilohiy, biroq yovuz, arslon kelbatli, bo‘ri suratlil Jablit va Tablit nomli ikki toifa maxluqlarni Alloh yaratganligi, ularni ilon va chayon dumli qilganligi, Jablit ilon dumini, Tablit esa chayon dumini jahannamga tushurib, u yerni barcha ilon, chayonlar bilan to‘ldirganligini keltiradi. Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” asarida islom ahkomlariga nisbatan ilonga bo‘lgan salbiy va keskin munosabatni ancha yumshatgan, buni muallifning mahalliy xalqning ilon va ajdarho bilan bog‘liq ijobiy munosabatlari aks etgan rivoyatlarni keltirishida ko‘rish mumkin.

Nosiruddin Rabg‘uziy asarda ilonning yana bir ajdarho turi – sazan-ilon haqida ahamiyatli rivoyatni keltiradi: “Qatig‘ un eshitdi. “Bu na turur?” teyu so‘rdi. Aydilar: “Bu yerda bir sazan-yilon bor, tengizdin chiqar. Oxshom o‘g‘urinda kimni bo‘lsa yeyur”. Solih aydi:”Ani o‘ltursam bu xaloyiq manga ne bergaylar?” Bu iki qarindosh ul shahar xalqiga aydilar: “Biragu kelib mundog‘ so‘zlayurlar. Ani o‘ltursa yarim molimizni anga bergaymiz”, tedilar. Solih qo‘pdi, ikki rak‘at namoz qildi taqi duo qildi. Ul yilon yorilib o‘ldi. Ular yarim mollarin

²²Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б.13.

berdilar. Kelturub Solihg‘a berdi, Solih olmadi”²³.

Nosiruddin Rabg‘uziy o‘z qissasida ajdar-ilon obrazini asosan olti aspektida talqin qilgan:

2-jadval

“Qissasi Rabg‘uziy” asarida ajdarho (yilon) obrazi talqinlari turlari

№	Yaxshi va yomon sifatleri	Tasvirlangan voqea
1.	Ijobiy - salbiy	Yilonning dastlab Momo Havo tomonidan aziz bilingani va keyinchalik Momo Havo va Odam Atoning jannatdan quvilishiga sababchi bo‘lganlardan biri sifatida talqin qilinishi.
2.	Ijobiy	Muso alayhissalom hassasi bo‘lib, so‘ngra ajdarhoga aylanishi va fir‘avn sehrgarlarini yengishi.
3.	Ijobiy	Nuh kemasining yorig‘ini tanasi bilan yopib, kema dagilarning joniga oro kirishi va buning mukofotiga erishishdagi aldanishi.
4.	Salbiy	Ertaklardagi kabi dahshatli maxluq qiyofasida odamlarga ozor berishi va buning uchun qahramon tomonidan jazolanishi.
5.	Ijobiy	Ka‘baning qurilish joyini ko‘rsatishi.
6.	Salbiy	Yusuf payg‘ambarni yemoqchi bo‘lishi.

Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy ilk marta sazan yoki sazan-yilon (Ilova 5.17-rasm.) obrazini o‘zbek mumtoz adabiyotiga olib kirgan va bu bilan qadimgi turkiy xalqlarning yana bir totemi bo‘lgan suv maxluqini ommaga tanishtirgan.

Qiziq tomoni shundaki, sazan balig‘ining vatani, turkiylar istiqomat qilgan va Xorazm hududiga qaragan yerlar dengizi – Xazar (Kaspiy) dengizi bo‘lgan. Ajdarhoning vatani hisoblangan Markaziy Osiyo hududidan bo‘lgan sazan balig‘iga alohida e‘tibor qaratilgan. Qadim Turon yurti bekorga ajdarho vatani deb sanalmagan. Qarshidagi “Qal‘ayi Zahhoki moron”, hozirgi Turkmanistonning Anau qo‘rg‘onining yonida Xuroson hukmdori Abul Qosim Bobur Bahodirxon (1446-1457) tomonidan qurilgan va peshtoqiga bir-biriga qarab turgan ikki ajdarho tasviri tushirilgan masjid, bino va joylar buni asoslaydi.

“Qissasi Rabg‘uziy” asarida muallif ajdarho obrazini diniy qarashlarga ko‘ra sof salbiy ma‘noda emas, balki milliy va mahalliy tushunchalar asosida uni ijobiy mazmunda talqin qiladi. Mifologik totem – ajdar-ilonni islom tushunchalari bilan kelishtirgan holda yoritadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Alisher Navoiy dostonlari va devonlarida ajdarho obrazining tilsimlari va statistikasi**” deb nomlangan.

Alisher Navoiyning barcha devonlari va dostonlarida ajdarho obrazi ko‘p marta keltirilgan. “Xamsa” asarining birinchi dostoni bo‘lgan “**Hayrat ul-abror**” asarida ajdarho obrazi 9 marta (5 marta ajdaho+4 marta ajdar atamalari bilan), yilon obrazi 17 marta (mor obrazi 1 marta) keltirilgan. Asarning boshida “Qur‘on”dagi birinchi “Fotiha” surasining boshlang‘ich “Bismillohir rahmonir rahim” jumlasining sharhi keltiriladi va shu sharhning to‘qqizinchi baytida ajdarho nomi tilga olinadi:

Yo‘qki, o‘shul rishtayi gavhar baho,
Ganji ilohiyg‘a erur **ajdaho**²⁴.

²³ Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 58.

